


Dorilarni Qanday O'lchash va Berish Kerak

8
BOB

BELGILAR

= (baravarlik) belgisi **baravarlikni**
yoki **tenglikni** anglatadi



+ (plus yoki qo'shish) belgisi **va** yoki
qo'shish kerakligini anglatadi

$$1 + 1 = 2$$


bir plus bir bo'ladi ikki

1 tabletka = 1 butun tabletkadir =


1/2 tabletka = yarim tabletkadir =

1 1/2 tabletka = bir yarim tabletkadir =

1/4 tabletka = butun tabletkaning bir choragidir =



1/8 tabletka = tabletkani sakkizga bo'linishi, ya'ni,
tabletkaning nimchoragi




O'LCHASH


Dorilar odatda gramm (g.) yoki milligramm (mg.) lar bilan o'lchanadi.

1000 mg. = 1 g. (bir ming milligramm bir grammga teng).

1 mg. = 0,001 g. (bir milligramm grammning mingdan bir qismi).

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Misol:  Kattalar uchun bitta 0,5 g.
aspirin tabletkasi- 0,500 g.
da 500 milligramm 500 mg. } Bularning hammasi
500 milligrammning
turli xil nomlanishi

 Bitta yosh bolalar 0,250 g.
uchun aspirin tablet- 250,0 mg.
kasida 250 milli- 250 mg. } Bularning hammasi
250 milligrammning
turli xil nomlanishi
gramm aspirin bor.





Albatta, dorining necha gramm yoki milligramm ekanligini bilish zarur. Bu ma'lumot dorilarning qog'ozlarida yoki qutilarida yuqoridagi tarzda yozilgan bo'ladi.

Masalan: agar siz bolaga bolalar aspirinining o'rniga kattalar aspirinining kichik qismini bermoqchi bo'lsangiz, ammo uni qancha miqdorda berishni bilmasangiz...

Har bir dorining yorlig'ida yozilgan kichik harflarni o'qing. Unda yozilishicha: aspirin: atsetilsalitsil kislotsi 0.5 g.

(atsetilsalitsil kislotsi = aspirin).



75 mg. 
75 mg. 
75 mg. 
75 mg. 

} 4 bolalar aspirinini
birlashtirsangiz

250 mg.



1 oddiy
aspirin

300 mg.



1 kattalar aspirinini
kelib chiqadi

Agar siz kattalar aspirinini 4 ta teng bo'lakka bo'lsangiz, har bir chorak - bitta bolalar aspiriniga yaqin bo'ladi.



Shunday qilib, agar siz kattalar aspirinini 4 qismga bo'lsangiz, siz bolaga bolalar aspirinini o'rniga uning 1 qismini berishingiz mumkin.

EHTIYOT BO`LING: Ko`p dorilar, ayniqsa, antibiotiklar turli vazn va o`lchamda bo`ladi. Masalan tetratsiklin E turdagi kapsulalarda ishlab chiqariladi.



250 mg.



100 mg.



50 mg

Dorini faqat aytilgan miqdorda berishga hushyor bo`ling. Dori necha gramm yoki milligramm ekanligini tekshirish juda muhimdir.

Masalan: agar sizga **250** mg li tetratsiklin kapsulalaridan **4** mahal iching deyilgan, lekin sizda **50** mg li kapsulalardan bo`lsa, siz har safar **50** mg.li kapsulalardan beshtasini **4** mahal ichishingiz kerak (bir kunda **20** kapsula).

$$50 \text{ mg.} + 50 \text{ mg.} + 50 \text{ mg.} + 50 \text{ mg.} + 50 \text{ mg.} = 250 \text{ mg.}$$



Penitsillinni O`lchash

Penitsillin odatda birlik (yedinitsa)larda o`lchanadi.

ED. = ta`sir birligi (T.B) 1,600,0

ED. (TB) = 1g. yoki 1000 mg.

Penitsillin (tabletka yoki ukoli) ko`pincha 400,000 ED. (TB) bilan ifodalanadi.
400,0 ED. = 250 mg.

SUYUQ DORILAR

Sharbat, suspenziya, suyuq aralashmalar va suyuq dorilar millilitrlar bilan o`lchanadi.

ml. = millilitr


1 litr = 1000 millilitr

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Ko`pincha suyuq dorilar osh qoshiq yoki choy qoshiqlarda tavsiya etiladi:

1 choy qoshiq (chq.) = 5ml.



1 osh qoshiq (oshq.) = 15ml.



Agar dorining tavsiyasida 1choy qoshiq iching desa, bu 5 ml. degani.


Ko`p choy qoshiqlar 8 ml. dan 3 ml. gacha bo`lishi mumkin. **Choy qoshiqni dori berish uchun ishlatayotganingizda, uning hajmi 5 ml. bo`lishi muhim— kichik ham, katta ham emas. Dori uchun ishlatilayotgan choy qoshiqning 5 ml. li ekanligini qanday qilib tekshirish mumkin.**

1. 5 ml.li choy qoshiq sotib oling yoki



2. Plastmassa qoshig`i bor dori sotib oling. Undan to`la hajmi 5ml, yarim hajmi 2,5 ml kelishini ko`rsatuvchi chizig`i bo`lishi mumkin. Bu qoshiqni saqlab qo`ying va boshqa dorilarni o`lchash uchun ishlatishingiz mumkin. yoki 5 ml.

3. Uyingizdagi kichik qoshiqni shprints yoki boshqa o'lchov asbobi yordamida 5 ml suv bilan to'ldiring va **suyuqlik chegarasini qoshig'ingizda belgilab qo'ying.**



YOSH BOLALARGA QANDAY QILIB DORI BERISH KERAK

Tabletka yoki kapsulalar holida bo'ladigan dorilarning ko'pi bolalar uchun sirop yoki suspenziya (maxsus suyuqlik) sifatida ishlab chiqariladi. Siropalar tabletkalar yoki kapsulalarga nisbatan qimmatroq. Pulingizni tejash maqsadida, siz siropni o'zingiz quyidagi yo'l bilan tayyorlashingiz mumkin:


Tabletkani yaxshilab tuying




shakar yoki asal

qaynatib sovutilgan suv

yoki kapsulani oching.



va kukunni qaynagan suv(sovutilgan) bilan aralashiring va shakar yoki asal qo'shing.



Bolalar uchun tabletka yoki kapsulalardan sirop tayyorlayotganda, **juda ko'p dori qo'shib yubormaslikka e'tibor bering.** Shuning-

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

dek, **1 yoshga kirmagan bolalarga asal bermang.** Bu kamdan kam bo'lsa ham, ba'zi bolalarga yomon ta'sir ko'rsatadi.

EHTIYOT BO'LING: Bola chalqancha yotganda unga dori bermang, dori tiqilib qolishi mumkin. Bola o'tirgan yoki boshi ko'tarilgan holatda bo'lsin. Hech qachon bola qaltirayotganda (tutqanoq), uxlayotganda yoki hushsiz bo'lganida dori bermang.

AGAR BOLALAR UCHUN BELGILANGAN DORI MIQDORINI BILMASANGIZ, BOLAGA QANCHA DORI BERISH KERAKLIGINI QANDAY BILISH MUMKIN?

Umuman, bola qanchalik yosh bo'lsa, unga shunchalik oz dori kerak. Dorini keragidan ko'proq berish xavfli bo'lishi mumkin. Agar sizda bolalar dorilari miqdorining qo'llanmasi bo'lsa, unga doim rioya qiling. Agar siz miqdorni bilmasangiz, bola vazni yoki yoshiga qarab hisoblab oling. Bolalarga kattalar miqdorining quyidagi qismlari berilishi kerak:

Kattalar: 1 miqdor

Bolalar:
8dan 13 yoshgacha:

1/2 miqdor

Bolalar: 4 dan 7
yoshgacha 1/4
miqdor

Bolalar:
1 dan 3 yoshgacha
1/8 miqdor

Bir yoshga to'lmagan bolaga doring miqdorini bilish uchun shifokor bilan maslaxatlashing



60 kilo



30 kilo



15 kilo



8 kilo



5 kilo

5 kilo

DORINI QANDAY QABUL QILISH KERAK



Umuman, dorini aytilgan vaqtda qabul qilish muhimdir. Ba`zi dorilar bir kunda bir marta, qolganlari ko`proq qabul qilinishi kerak. Agar tavsiyada „1 tadan har 8 soatda“ deyilgan bo`lsa, 3 mahal iching: ertalab bitta, peshinda bitta, kechki payt (yotishdan avval) bitta. Agar „1 tadan har 6 soatda“ deyilgan bo`lsa, 4 mahal iching: ertalab, peshinda, asr (soat 4,5 lar)da va kechki payt bittadan iching. Agar „1 tadan har 4soatda“ desa, 6 mahal iching: dorilar qabul qilish orasida bir xil vaqt o`tkazing.

AGAR SIZ BIROR KISHIGA DORI BERAYOTGAN BO`LSANGIZ

...Doim quyidagi ma`lumotlarni dori tagiga yozib bering, bemor o`qishni bilmasa ham, eslatmaga to`la yozib qo`ying:

- odamning ismi
- dorining nomi
- u nima sababdan qabul qilinyapti
- miqdori

Ismi:	Po`latov Ergashboy
Dori:	Mebendazol (vermoks) 100 mgli tab.
Nimaga:	Gijja (Qurt)
Miqdor:	1 ta tabletkadan kuniga 2 mahal, 3 kun davomida

DORILARNI OCH YOKI TO`Q QORINGA ICHISH YUZASIDAN KO`RSATMALAR

Ba`zi dorilar och qoringa ichilganda yaxshi foyda beradi - bu ovqatdan 1 soat oldin deganidir.

Boshqa dorilar esa ovqat bilan yoki ovqatdan so`ng ichilganda qorinni og`ritmaydi yoki jig`ildonni qaynatmaydi (zarda qilmaydi).

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

Ushbu dorilarni ovqatdan 1 soat oldin iching:

- penitsillin
- ampitsillin
- tetratsiklin
- temir moddali tabletkalar

Tetratsiklin ichishdan 1 soat oldin va keyin sut ichmagan ma`qul.

Ushbu dorilarni ovqat bilan yoki ovqatdan keyin darhol iching (ko`p suv bilan):


- aspirin yoki tarkibida aspirini bor dorilar
- vitaminlar
- eritromitsin

Antatsid dorilarni och qoringa, ovqatdan 1 yoki 2 soat keyin va yotish oldidan ichgan ma`qul.

Eslatma: Dorilarni turib yoki o`tirib ichgan yaxshi. Shuningdek, har safar dori ichganingizda uni bir katta piyolada suv bilan ichishga harakat qiling. Agar siz sulfanilamid dorilarni ichayotgan bo`lsangiz, buyrakka yomon ta`sir qilmasligi uchun **ularni ko`p suv bilan ichish** muhim. Bir kunda kamida **2** litr suv iching.


O`qishga qiynaladigan bemorlarga quyidagi suratli eslatmani berishingiz mumkin

Qutichalarga esa dorining miqdorini chizib bering va ehtiyotkorlik bilan tushuntirib bering




Masalan:


Kuniga 4 mahal 1ta tabletkadan qabul qilish kerak.
1 tabletkada ertalab, 1 tabletkada kunduzi, 1 tabletkada kechqurun, 1 tabletkada kechasi




Kuniga 4 mahal yarim tabletka



Kuniga 3 mahal 1 tadan kapsula



Kuniga 2 mahal chorak tabletka



Kuniga 2 choy qoshiqdan 2 mahal

